



SHAROF BOSHBEKOV DRAMALARIDA VERBAL VA NOVERBAL VOSITALAR

Nodira Mustafayeva Abdujalilovna,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi

E-mail: nodira197605@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17932109>

Annotatsiya: Ushbu maqolada dramaturg Sharof Boshbekov asarlarida verbal va noverbal vositalardan umumli foydalangani, inson ruhiyatining eng nozik, ichki qatlamlarini sahna orqali ochib berishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: drama, til vositalari, obraz, verbal, noverbal, drama, ifoda, tahlil, dialog, monolog.

Abstract: In three articles, information is provided about the use of verbal and non-verbal materials in the works of the playwright Sharof Boshbekov, and how the most subtle, inner layers of human spirituality can be revealed through the stage.

Keywords: image, verbal, drama, expression, analysis, dialogue, monologue.

Adabiyotda dramatik asarlar inson ruhiyatining eng nozik, ichki qatlamlarini sahna vositalari orqali ochib berishga xizmat qiladi. Dramada esa, ayniqsa, til vositalarining (verbal) va noverbal (so'zsiz) ifoda vositalarining o'rni beqiyos. Sharof Boshbekov – o'zbek dramaturgiyasining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning asarlarida zamonaviy jamiyatdagi ruhiy, ijtimoiy va axloqiy muammolar obrazlar, sahna harakati, imo-ishora va sukunat orqali ifodalanadi. Ushbu maqolada Boshbekov dramalarida **verbal** (so'zli) va **noverbal** (so'zsiz) ifoda vositalarining o'zaro uyg'unligi, ularning dramatik konfliktni ochishdagi roli tahlil qilinadi. Sharof Boshbekov dramalarida til vositalari, ayniqsa, dialog va monologlar orqali obrazlar xarakteri, ijtimoiy mavqei, ichki kechinmalari chuqur ochib beriladi. Sh.Boshbekov dramasida bosh qahramonlarning o'zaro muloqotlari nafaqat voqeani harakatga keltiradi, balki ularning ichki nizolarini ochadi. Dialoglar orqali: qahramonlar o'zaro munosabatini aniqlashadi;

- ichki konfliktlar yuzaga chiqadi;
- jamiyatdagi muammolar aks ettiriladi.

Sh.Boshbekovning monoglari esa ko'pincha falsafiy teranlik kasb etgan bo'lib, ular orqali obraz o'z-o'zini anglaydi yoki tinglovchini mushohadaga chorlaydi. Sharof Boshbekov dramalarida noverbal vositalar o'ta muhim dramatik vazifani bajaradi. Ayrim hollarda so'zlar emas, aynan sukunat yoki tana tili orqali dramatik kuchni oshiradi. Masalan:

Sh.Boshbekov dramalarida verbal va noverbal vositalar bir-birini to'ldirib boradi.



Ular dramatik voqelikni jonlantiradi va obrazlararo munosabatlarni yanada chuqurroq ochadi. Ayniqsa, konfliktli sahnalarda:

-Verbal vositalar orqali zohiriy qarama-qarshilik ochiladi.

-Noverbal vositalar orqali yashirin, ichki ziddiyatlar aks ettiriladi.

Masalan, qahramon og'zaki ravishda tinchlikka da'vat qilsa-da, uning yuzida g'azab ifodasi aks etgan bo'ladi — bu esa murakkab ichki konfliktni anglatadi. Sharof Boshbekov dramalarida verbal va noverbal vositalar asarning badiiy-estetik qiymatini oshiruvchi asosiy unsurlardandir. Dialog, monolog, imo-ishora, tana tili va sukunatning dramatik vaziyatga mos holda qo'llanishi qahramon xarakterining chuqur ochilishiga, sahnadagi voqelikning hayotiy bo'lishiga xizmat qiladi. Ularning uyg'unligi esa Boshbekovning dramaturgiya sohasidagi mahoratini ko'rsatadi. Muloqot jarayonida nafaqat so'zlar vositasidagi axborotni tinglaymiz, balki bir-birimizning ko'zlarimizga qarab, ovoz tembri, intonatsiya, mimika, jestlar orqali ham bir-birimizni anglaymiz, o'zaro suhbatlashamiz. So'zlar bizga mantiqiy axborotni uzatsa, jestlar, mimika, ovoz ushbu axborotni to'ldiradi. Tilshunos olim A.Nurmonov: "O'zbeklarda substitutiv funksiya bajara oladigan imo-ishoralar har qanday informatsiyani ifodalamaydi, ularning vazifa doirasi nihoyatda cheklangan, asosan, kundalik og'zaki aralashuv uslubi bilan bog'liq", - deb uqtirsa [Nurmonov. A.2012.161-b] A., M.Saidxonov" Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar" nomli asarida kommunikativ jarayon uchun xizmat qiluvchi ma'lum axborotni uzatish vositalaridan bo'lgan ramzlar, shartli belgilar, morze tili, ishoralar va boshqa bir qancha vositalar borki, ular ichida til tabiiy, shu til sohiblari uchun tushunarli, tayyor holdagi aloqa vositasi sanalishini aytib, ishoralar, mimika, ovozda turli holatlar va gavda harakatlari aloqa-aralashuv vazifasini bajarishdan qat'iy nazar kommunikatsiyada ikkilamchi vosita vazifasini bajarishini ta'kidlaydi[Saidxonov.M.2002.8-3,8]. Verbal xabar bilan birga kechuvchi noverbal signallar, ularni takrorlashi (ayniqsa tuyg'ularni ifodalaganda), aniqlashtirishi (jestlar), o'rnini bosishi) so'zlardan qochish vaqtida) yoki ularga qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Noverbal signallar mustaqil ma'noni ifodalash, verbal xabarni to'ldirish, shuningdek, ishtirokchilarni jumlalar almashinuv vaqti, kommunikativ akt tugashi, ishonchsizlik yoki noqulaylikning yuzaga kelishi haqida xabar bilan ta'minlash, verbal muloqot jarayonini boshqarish uchun ishlatilishi mumkin. Olimlarning fikricha, noverbal muloqot tilshunoslikning bir qismi sifatida tadqiq etiladi va uning komponentlar soni quyidagicha:

- 1.Paralingvistika (noverbal muloqotning ovoz kodlari);
- 2.Kinesika (imo-ishora harakatlari);
- 3.Okulesika (ko'z harakatlari);
4. Auskultatsiya (insonlarning ovoz ohangi);



5. Gaptika (inson gavda qismiga teginish suhbat);

6. Gastika (ozuq-ovqat va ichimliklar belgisi yoki ta'm bilish);

7. Olfaksiya (hid bilish orqali muloqot);

8. Proksemika (muloqot maydoni);

9. Xronemika (muloqot vaqti);

10. Sistemologiya (insonni o'rab turgan atrof-tevarak). [Крейдин .Г .2002. – С. 22.]

Noverbal muloqot odatda o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Ko'pincha o'z fikrimizni so'zlar ko'rinishida shakllantiramiz, holatimiz, mimikamiz va jestlarimiz ongimizdan tashqarida beixtiyor paydo bo'ladi. Garchi noverbal muloqot ko'pincha ongsiz jarayon bo'lsa-da, bugungi kunda u ancha o'zgartirilgan va kerakli natijaga erishish uchun muvaffaqiyatli nazorat qilinishi mumkin. Noverbal til yordamida o'z hislarimizni ifodalaymiz, muhabbat va nafrat, ustunlik yoki tobelik, hurmat yoki hurmatsizlik. Ichimizda bo'lmagan noverbal signallarni, hislarni atayin uzatish qiyin, deyarli imkonsiz jarayon. Aynan shuning uchun artistlar suratga olish jarayonlarida obrazga kirishishga va uzatishlari kerak bo'lgan hislarni boshdan kechirishga harakat qiladilar. Axborotni uzatishda asosiy o'rinni o'zbeklarda ham yuz mushaklari harakati (mimika) o'ynaydi.

Boshning o'zi ham muloqot jarayonida fikrlarni suhbatdoshga so'zlarsiz yetkazib berish vazifasini bajaradi. Ayniqsa, dramatik asarlarda qahramonlar tomoshabinga voqeani faqat so'zlar vositasida emas, butun tana harakatlari orqali ham ifodalab beradi. Tomoshabinga, asosan, holat orqali ko'rsatib berish ko'proq ta'sir qiladi. Jumladan, kinoqissalar ham faqat o'quvchilar emas, aktyor, rejissyor va tomoshabinlarga mo'ljallab yoziladigan asar bo'lgani uchun uning matnida ham tana harakati orqali muloqot qilish asosiy masala hisoblanadi. Dramalarda qahramon dunyoqarashi, voqelikka munosabatini ifodalashda o'zlashma so'zlardagi tovushlarni o'zgartirish, tovush tushirish kabi usullardan mahorat bilan foydalanilgan. Masalan: *Olimjon. Xafa bo'lmang-u, Qo'chqor aka, kennoyimga ham qiyin-da. Ahvolni qarang: haliyam o'choq, haliyam tezak yoqiladi. Progress yo'q qishloqlarimizda turmush darajasi past, chidab bo'lmaydigan darajada past!* (Sh. Boshbekov. "Temir xotin")

Suhbatning mimikasini, jestlari ular nimani o'ylayotgani va his qilayotganini yuzaga chiqaradi. Verbal vositalar bilan bir qatorda noverbal vositalar ayrim nutq vaziyatlarida so'zlamoqchi bo'lgan kishining maqsadini oldindan namoyish qilib qo'yishi mumkin, shu bois bunday vositalar haqida zarur ma'lumotalarga ega bo'lmaslik, suhbatdosh yoki hamkor bilan muloqotning ko'ngildagidek bo'lmasligiga, samarasiz harakatga sabab bo'lishi mumkin. Noverbal vositalarni sotsiopragmatik imkoniyatlari verbal vositalardan kam emas.

Adabiyotlar:

1. Boshbekov Sh. “Temir xotin” – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot, 1990.
2. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Akademnas’hr, 2012. – B. 161.
3. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 3, 18.
4. Крейдлин Г. Невербальная семиотика. – М.: Новое литературное обозрение, 2002. – С. 2